



BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY RELATED TO THE TREE CULT

Bekhzod Barkamalovich Iskhakov

Associate Professor, PhD in History
Namangan State Technical University
behzodisxakov2782886@gmail.com
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: nature cult, ecological culture, totemism, animism, shamanism, tree symbol, ancient beliefs, Central Asia, Fergana Valley, folk rituals, fertility, mythology, ecological awareness.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The article highlights the historical roots of traditional ecological culture formed through humanity's divine relationship with nature. It analyzes the connection between ancient beliefs totemism, animism, and shamanism and the nature cult. The paper presents the traditions of revering sacred trees as symbols of fertility and protection among the peoples of Central Asia, particularly the Fergana Valley. The role of the tree cult in shaping ecological culture is substantiated.

FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARINING DARAXT KUL'TI BILAN BOG'LIQ QARASHLARI

Bexzod Barkamalovich Isxakov

Dotsent, tarix fanlari falsafa doktori PhD
Namangan davlat texnika universiteti
behzodisxakov2782886@gmail.com
Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tabiat kul'ti, ekologik madaniyat, totemizm, animizm, shomonlik, daraxt ramzi, qadimiy e'tiqodlar, O'rta Osiyo, Farg'ona vodiysi, xalq marosimlari, hosildorlik, mifologiya, ekologik ong.

Annotatsiya: Maqolada insoniyatning tabiatga bo'lgan ilohiy munosabatlari asosida shakllangan an'anaviy ekologik madaniyatning tarixiy ildizlari yoritilgan. Qadimgi diniy e'tiqodlar totemizm, animizm, shomonlik kabi qarashlarning tabiat kul'ti bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. O'rta Osiyo, xususan Farg'ona vodiysi aholisi orasida daraxtlarni muqaddaslashtirish, hosildorlik va himoya ramzi sifatida e'zozlash an'analari ko'rsatilgan.

Daraxt kul'tining ekologik madaniyat shakllanishidagi o'rni asoslab beriladi.

ВОЗЗРЕНИЯ УЗБЕКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С КУЛЬТОМ ДЕРЕВА

Бехзод Баркамалович Исхаков

Доцент, Доктор философии (PhD) по историческим наукам

Наманганского государственного технического университета

behzodisxakov2782886@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: культ природы, экологическая культура, тотемизм, анимизм, шаманизм, символ дерева, древние верования, Средняя Азия, Ферганская долина, народные обряды, плодородие, мифология, экологическое сознание.

Аннотация: В статье освещены исторические корни традиционной экологической культуры, сформировавшейся на основе божественного отношения человека к природе. Анализируется связь древних религиозных верований тотемизма, анимизма и шаманизма с культом природы. Показаны традиции почитания священных деревьев как символов плодородия и защиты у народов Средней Азии, в частности Ферганской долины. Обоснована роль культа деревьев в формировании экологической культуры.

Kirish. Antik davrdan boshlab insoniyatning tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosiga bo'lgan ilohiy munosabatlari asosida e'tiqod hamda tajribalarni o'zida jamlagan an'anaviy ekologik madaniyat shakllana boshlagan. Ushbu madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tabiatni asrash bilan bog'liq diniy an'analar vujudga kelgan. Asta-sekinlik bilan odamlar yashab kelgan geografik hududning iqlimi, tabiati, yil fasllari hamda mavsumiy bayramlar asosida ekologik tasavvurlari rivojlana borgan.

Tarixdan hammamizga a'yonki, dunyo xalqlarida ibtidoiy davrlardan boshlab turli diniy e'tiqod va tasavvurlar mavjud bo'lgan. Ushbu diniy qarashlarning turli-tuman bo'lishiga hududlarning joylashgan o'rni, aholining turmush tarzi va dunyoqarashi sabab bo'lgan. Tabiiy muhit ilk diniy e'tiqodlarning vujudga kelishida va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Dastlabki diniy tasavvurlar so'nggi paleolit davrida (mil. avv. 40–12 ming yilliklar) paydo bo'lib[1], ular sirasiga totemizm, animizm, magiya, fetishizm va shomonlik kabi diniy e'tiqodlar kiradi.

Asosiy qism. Insoniyatning ilk diniy e'tiqodlari ham bevosita tabiat kul'ti bilan bog'liq bo'lib, ibtidoiy odamlar tabiat qonunlari oldidagi ojizlik oqibatida mifologik tasavvurlar shakllangan. Unga ko'ra, inson tabiiy muhit bilan birlashadi, ya'ni tabiat va inson o'z

jamoasidan ajralmagan holda hayot kechiradi. Ilk diniy tasavvurlarga ko'ra, olam bu dunyo, u dunyo va g'ayri tabiiy dunyoga bo'linadi. Shu bois tabiat kul'tining asosi g'ayritabiiy kuchlarga ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan edi.

Jumladan, ibtidoiy davrda totem – ajdodning muayyan jonivor, o'simlik va boshqa narsa ko'rinishida namoyon bo'lishi mifologik mohiyat kasb etgan hamda odatiy hol deb hisoblangan. Mazkur tushuncha eng qadimgi miflarda asotiriy personajlarning o'zlari mansub bo'lgan totem qiyofasiga kirishi motivini keltirib chiqargan. Mifologiyada ushbu motiv ma'lum bir hodisa yoki hayotiy voqelik sabablarini izohlash va tushuntirish vazifasini bajargan[2].

Ta'kidlash joizki, tabiat kul'tini ilk diniy tasavvurlarning deyarli barchasida uchratish mumkin. Jumladan, totemizm qadimgi turkiy xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, unda ba'zi o'simlik (daraxt) va hayvonlar odamning qo'riqllovchisi hamda tangrilari hisoblangan. Muayyan qavm a'zolari aniq bir hayvon zotidan yoki o'simlikdan tarqalgan degan tasavvurda bo'lganlar. Shu boisdan ham totem ular uchun ilohiy (muqaddas) hisoblangan.

Odatda, tabiat kul'tlari orasida daraxt timsoli alohida o'ringa ega. O'rta Osiyo xalqlari islom kirib kelgunga qadar turli xil agrar kul'tlar, mahalliy diniy e'tiqodlarga sig'inib kelgan. Ushbu jarayon keyingi davrlar (arablar va mo'g'ullar istilosi)da ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Lekin, islom dini O'rta Osiyoda to'liq qaror topganidan so'ng qadimiy diniy tasavvurlarga va ularning mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzidagi ko'rinishlariga bo'lgan munosabat o'zgarishlarga uchragan.

O'rta Osiyodagi madaniy yodgorliklar ushbu mintqa xalqlari hayotida diniy tasavvurlarning boy va xilma-xil bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday rang-barang holatning vujudga kelishiga asrlar davomida mahalliy aholining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganligi, davr o'zgarishlari, xalqlarning ko'chib yurishlari, boshqa xalqlar e'tiqodlari va mintqa uchun yangi bo'lgan diniy tizimlarning kelib tarqalishi sabab bo'ldi. Dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lish va rivojlanish jarayonlarini bevosita turli-tuman birlamchi manbalar – petrogliflar, arxeologik topilmalar, yozma va og'zaki rivoyatlar misolida ko'rish mumkin.

Archa va chinor juda qadimdan muqaddas kuchga ega ob'yekt sifatida duniyoning boshqa etnoslari orasida ham e'zozlangan va islom davriga kelib, avliyolar mozoriga aylangan. Ularga qizlar o'z qalb sirlarini aytib, daraxt shoxlariga alam bog'lab, armonlarining ushalishiga umid qilganlar. Janubiy Turkmaniston va Tojikistonda chinor daraxti g'oyat e'zozlanib, ularda ushbu daraxtning qurigan shoxlarini o'tin sifatida yoqish yoki isrof gunoh hisoblangan[3].

Anor daraxtining ramzi baraka, hosildorlikni ifoda etib, qadimgi sopol buyumlarda Anaxita ma'budasi ko'pincha aynan ushbu meva timsolida tasvirlangan. VI–VIII asrlarda yaratilgan

Afrosiyob naqshlarida ana shu daraxt tasvirlari ko'plab uchraydi. O'rta Osiyoning janubiy qismidagi ayrim qishloqlar ahli anor bolaning tug'ilishida ko'mak beradi deb hisoblaydi. Popopchi chevar ayollar anor daraxti tasvirini matoga to'qish jarayonida uning baraka va mo'l ho-sil ramzi sifatida qaraydilar. Tut daraxtiga kelsak, uning shoyi ishlab chiqarishda katta ahamiyati borligi sababli uni muqaddaslashtirish Xitoydan boshlangan[4].

Boshqa daraxtlar qatori na'matak ham Farg'ona vodiysining tog'li hududlari aholisi orasida birmuncha qadrlanadi. Jumladan, vodiyning ayrim tog'li qismlarida yangi yil arafasida uy egasi na'matakning bir bog'ini shiftga osib qo'yadi. Bu orqali ular na'matak kelasi yil don ekinlaridan mo'l-ko'l hosil olish imkonini beradi, deb ishonadilar[5]. Islomgacha bo'lgan davrda Xorazmda befarzand ayollar bola ko'rish umidida tanalarini daraxt suvi bilan ho'llaganlar[6].

Daraxt kul'ti bilan bog'liq qarashlar o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzida ham uchrab turadi. Jumladan, mintaqa aholisi o'rik, yong'oq, tut, tol, jiya, anjir, behning o'ziga xos bo'lgan "ruhlari" mavjudligiga ishonadilar. Masalan, Namangan viloyati Pop tumani Qo'shtepa qishlog'i aholisi orasida shunday bir udum mavjud. Yangi tug'ilgan chaqloq yotgan uy "chillali" hisoblanib, bu yerga shomdan keyin har qanday kishining kirishi ta'qiqlanadi. Chunki, xalqona qarashlarga ko'ra, shomdan keyin barcha yovuz ruhlari sayrga chiqishi va bu paytda ko'chada yurgan odamga ilashishi mumkin. Shuning uchun shomdan keyin uyiga kelgan kishi biror-bir mevali daraxtni uch marotaba quchoqlab, son'gra uyga kirgan. Shunda o'sha kishiga ilashgan barcha ins-jinslarni daraxt o'z bag'riga olib qolishi mumkin degan qarashlar mintaqa aholisiga xos xususiyatdir[7].

Barcha diniy e'tiqodlarda bo'lgani singari shomonlikda ham daraxt va uning tarkibiy qismlariga nisbatan ijobiy munosabat mavjud. Buni shomonlik marosimlari paytida ishlatiladigan marosim atributlari misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, o'zbek, tojik va uyg'ur shomonlari davolash jarayonlarida daraxt novdalaridan tayyorlangan xivchindan ham foydalanadilar. V. Basilovning qayd etishicha, kuchli va taniqli shomonlar xivchindan, yangi yoki kuchsiz shomonlar esa oddiy cho'pdan foydalanganlar[8].

G.P. Snesevning fikricha, daraxt shoxlaridan yasalgan dasta cho'p bilan davolash usuli zardushtiylikka borib taqaladi. Zardushtiylikda toldan yasalgan xivchin yovuz ruhlarni haydovchi asosiy vosita hisoblangan[9]. Gerodotning yozishicha, skif shomonlari tol novdalari yordamida fol ochganlar va daraxtlarning tagida shomonlik marosimlarini o'tkazganlar[10].

Farg'ona vodiysi shomonlari xivchini erta bahorda tayyorlab, uni butun yil davomida ishlatadilar va har yili xuddi shu paytda yangilab oladilar. Xivchinlar dasta qilib bog'lanib, marosim o'tkaziladigan uyning burchagiga osib qo'yiladi. Xivchindagi novdalar soni qirq bittani tashkil qiladi. Baxshi xivchinning pastki qismidan ushlab, dastlab bemorning ustidan o'ngdan

chapgga qaratib, uch marta aylantirib oladi. So'ngra bemorning bosh va tanasining orqa qismlariga ura boshlaydi. Ushbu harakat kasalga ziyon yetkazgan yomon ruhlarni quvish maqsadida bajariladi[11].

Bunga o'xshash odat O'zbekistonning boshqa hududlarida ham mavjud bo'lib, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida samarqandlik tabiblar tol shoxlari yordamida kasallarga suyuqlik purkaganlar. Bundan tashqari, Xorazm va Samarqandda dev hamda jinlarni qochirish uchun folbinlar barglari shilingan yettita tol xivchinlarini ishlatganlar[12].

K. Shoniyozov qipchoqlarda shomon xivchini jiyda va tol shoxchalaridan tay-yorlanib, asosan, “ko'chirma” marosimi paytida bemorni tanasiga kirib olgan yovuz ruhlarni haydash uchun ishlatilganligini qayd etgan bo'lsa[13], L. Troits-kaya XX asr boshlarida Toshkent va Samarqand folbinlari xivchin yordamida bemorning bosh hamda yelkasiga qirq bir marta urib, darddan xalos etganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan[14].

Mashhur muarrixlar Rashiddin, Abulg'oziy Bahodirxon hamda arxeolog Sergey Tolstov asarlarida qadimgi qipchoqlarda daraxt totemi yoki ushbu totem izlari bo'lganligi qayd etilgan[15]. Qadimgi turkiy xalqlar daraxtlar ota daraxt, ona daraxt bo'ladi, deb hisoblaganlar. Inson hayoti mohiyatiga ko'ra o'z egizak daraxti hayoti bilan bog'liq bo'lgan. Boz ustiga, qadimda turkiylar orasida har bir urug'ning o'ziga xos shajara daraxti ham bo'lgan. Bu daraxt shu urug' a'zolari uchun muqaddas sanalgan. R. G. Ahmetyanovning fikricha, qirg'izcha “tangrim bir yog'sa, teragim ikki yog'adi”, tatarcha “tiraging bo'lsa, tiraging bo'lar” maqollarida “terak” so'zi “himoyachi”, “urug'”, “homiy” ma'nosida saqlanib qolgan[16].

Shubhasiz, bularning bari turkiylarning qadimiy totemistik qarashlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu e'tiqodlar tufayli qabila a'zolari o'z totemlariga qarab urug'-aymoqlarga bo'lingan. Shunga muvofiq qabila va urug' nomlari totem sifatida qabul qilingan va jonivor nomi bilan nomlangan. Vaqtlar o'tishi bilan totemizm yanada takomillashgan. Natijada, qator hayvonlardan birining panjasi, ikkinchisining tumshug'i, quyrug'i (dumi), oyoqlari kabi a'zolaridan birovi olinib unga shakl berilgan. Shu tariqa ajoyib timsol bunyod etilib, ular muqaddas va yaratuvchi sifatida e'zozlangan[17].

Qadimgi yunonlarning muqaddas o'simliklari va daraxt kul'tining tadqiqotchisi Ye. Kagarovning fikricha, “daraxtlarga sig'inish an'anasi animizm asosida kelib chiqqan bo'lib, daraxtlar o'lgan odamning ruhi saqlanadigan joy yoki yovuz va ezgu kuchlarning panohi sifatida talqin etilgan”[18].

Daraxtlarning insonga aylanishi yoki hayotning daraxtdan boshlanishi haqidagi afsonalar nafaqat o'zbek xalq og'zaki ijodida, balki dunyo xalqlari folklorida ham uchraydi. Bu kabi inonchlar xalq hayotiga shu qadar singib ketganki, natijada hayotning boshlanishiga asos bo'lgan

deb tasavvur qilingan ayrim daraxtlarni muqaddaslashtirish va ularni sig'inish ob'yektlariga aylantirish an'anasi kelib chiqqan. Shu bois, odamlar qayrag'och, gujum, tol, terak kabi daraxtlar bilan bog'liq muqaddas joylarni ziyoratgohga aylantirganlar. Xususan, "Terakmozor", "Umarqul toli"[19] kabi ziyoratgoh joylar o'sha yerda o'sadigan qadimiy daraxtni muqaddaslashtirish an'analari hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Etnolog olim A. Ashirov "tut va boshqa dov-daraxtlarning shoxlariga niyat qilib latta bog'lash orqali topinuvchi e'tiqod ob'yekti bilan bevosita afsungarlik muloqoti o'rnatiladi", – deb hisoblaydi[20]. Hosildorlik kul'ti elementlari ko'rinadi.

Yana shuni ham qayd etish kerakki, farg'onaliklar orasida daraxtlarni jonli deb hisoblash va ularda odamlar ruhi yashashiga ishonish bilan bog'liq qadimgi animistik qarashlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Ziyoratgohlar hududidagi daraxt va o'simliklar muqaddaslashtirilganligi tufayli ularni kesish, yulish kishilarga ziyon-zahmat olib keladi deb hisoblangan. Chunonchi, xalq og'zaki ijodida daraxt erkak kishining ramziy timsoli, sanalgan. Muqaddas daraxt va butalar jumlasiga chinor, archa, tut, jiya, pista, yong'oq, o'rik, olcha, tol, terak, qayrag'och singari daraxtlar kirgan. Qolaversa, Farg'ona viloyatidagi muqaddas joylarning ayrimlari qadimdan daraxtlar nomi bilan atab kelingan[21].

Qadimdan dunyo xalqlarida "Odamlar ruhi daraxtlarda yashaydi. Agar marhumga bag'ishlab daraxt ekilmasa, uning ruhi azobda qoladi", degan tushuncha mavjud bo'lgan. Shu boisdan ham odamlar daraxtlarni sababsiz kesishdan o'zlarini tiyganlar[22].

Ye. M. Pesherevaning fikricha, daraxt kul'ti bilan aloqador bu marosim o'lib-tiriluvchi ma'budlar to'g'risidagi qadimgi mifologik tasavvurlar asosida shakllangan. Uning fikricha, qachonlardir yashab o'tgan bu mifologik personaj serhosillik va boqiy tabiat timsoli sifatida qaralgan bo'lib, u o'lganidan keyin jasadi yer yuziga sochilib ketgan. Shu bois daraxt novdasiga terib olingan lolalarni bog'lab chiqish udumini ana shu afsonaviy avliyoning johillar tomonidan bo'lib tashlangan tanasini qayta tiklashning ramziy shakli deb taxmin qilish mumkin[23].

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, barcha unsurlar singari daraxt ham dunyo xalqlari kabi Farg'ona vodiysida doimo muqaddas bo'lib kelgan. Mazkur unsur nafaqat salqin beruvchi, balki o'z navbatida yovuz ruhlarni o'zida olib qoluvchi vosita sifatida ham qadrlangan. Daraxt bilan bog'liq arxaik qarashlar dunyo xalqlari mifologiyasi va etnografiyasidagi mushtarak elementlardan bo'lib, unga hosildorlik hamda kuch-quvvat ramzi sifatida ulug'langan. Daraxtning tiriklik ramzi ekanligi unga bo'lgan munosabatning yanada ijobiy tomonga o'zgarishi va yoshlar ongida ekologik madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Халмуратов Б. Р. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида шомонлик эътиқоди. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б. 10.
2. Файзиева Д. Ўзбек халқ эртакларида илон-одам образи. Фольклоршунослик / Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижодиётига доир тадқиқотлар. 1- китоб. – Навоий, 2003. – Б. 93.
3. Ёвқочев М. Марказий Осиё динлари тарихи. – Тошкент, 2005. – Б. 35.
4. Kabirov A. Jahon tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – B. 81.
5. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani Chorkesar qishlog'i. 2020-yil.
6. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука. 1969. – С. 204.
7. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani Qo'shtepa qishlog'i. 2020-yil.
8. Басилов В. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1992. – С. 80.
9. Снесарев Г. Реликты домусульманских верований... – С. 55–57.
10. Геродот. История. – Ленинград: Наука, 1972. – С. 93.
11. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Oltinko'l tumani Garmob qishlog'i. 2010-yil.
12. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент, 2008. – Б. 45.
13. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент: Фан, 1974. – С. 329.
14. Троицкая А. Лечение болных ... – С. 153
15. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1. Книга 1. – М.–Л. 1952. – С. 84; Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент, 1992. – Б. 21.
16. Ахметьянов Р. “Лес”, “дерево” и “барс” у тюрков (этимологические заметки) // Советская тюркология. – Баку, 1980. – №5. – С. 87.
17. Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий... – Б. 14.
18. Культ фетишей, растений и животных Древней Греции. – Спб., 1913. – С. 316.
19. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Rajabgardi qishlog'i. 2010-yil.
20. Аширов А.А. Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар: Тарих фан. ном... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 103; Терлецкий Н.С. К вопросу о

роли лоскутов ткани (латта-банд) на мазарах Центральной Азии / Сборник статей к 70-летию Р.Р. Рахимова. – СПб., 2008. – С. 118–122.

21. Абдулахатов Н., Эшонбобоев Ў. Кўхна Марғилон зиёратгоҳлари. – Фарғона: Фарғона, 2007. – Б. 211.

22. Фрезер Дж. Золотая ветвь. – Москва: Политиздат, 1980. – С. 136.

23. Жўраев М., Саттиева Д. Ўзбек фольклорида ҳаёт дарахти. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 38.